Xitoyda ham ashyolarni saqlash va omonatga saqlash tizimining qadimiyligi haqida ko'plab afsonalar mavjud. Shulardan biriga ko'ra, Sian shahridagi jasur jangchi urushda qo'lga kiritilgan o'ljalarni yig'ib, ularni uyida saqlagan. Keyinchalik uyda qo'lga kiritilgan o'ljalar sig'masdan qolganida, ularni ko'zalar va xumlarga joylab, dalada chuqur qazib, bu idishlarni o'raning devorlariga terib chiqqan. Mutaxassislarning fikricha, bu voqea birinchi "Self Storage made in China" hisoblanadi [1].

Qadimgi misrliklar va xitoyliklardan keyin rimliklar ashyolarni saqlash bilan shug'ullana boshlagan. Qudratli Rim imperiyasining gullab-yashnagan davrida mahsulotni saqlashga katta e'tibor berilgan. Shuning uchun

bu davrni oʻz-oʻzini saqlash yoki individual saqlash kabi xizmatni shakllantirishning oltin davri deb atash mumkin. Chunki oʻsha davrda Rim imperiyasi oʻzining savdo yoʻllari, fathlari va koʻplab sayohatchilar bilan mashhur edi. Shu sababli hammada qayerdadir biron-bir narsani saqlash zarurati mavjud boʻlgan.

Biroq miloddan avvalgi 500-yilga kelib, mahsulotlar va tovarlar uchun qoʻshimcha konteyner (idish)lar va omborxonalarga ehtiyoj keskin kamaydi. Ijaradan olingan foyda miqdori juda tez minimal darajaga tushganligi sababli omborxonalar uzoq vaqt davomida ishlatilmay qoldi. X asr davomida dunyo jamoat va individual omborxonalarini yaratish imkoniyatini deyarli butunlay unutdi.

“Self storage” (shaxsiy saqlash) xizmatini tiklash vazifasini oʻz zimmasiga olgan birinchi mamlakat Venetsiya hisoblanadi. Jugʻrofiya jihatdan Osiyodan Yevropaga oʻtadigan yirik savdo yoʻllari kesishmasida joylashgan Venetsiya Respublikasi faol ravishda omborlar yaratishni boshladi. Saqlash uchun olingan tovarlar hisobini yuritish gʻoyasi ham venetsiyaliklarga tegishlidir.

Shundan soʻng estafeta inglizlarga oʻtdi, chunki ularga choy, oziq-ovqat mahsulotlari, ziravorlar, qishloq xoʻjaligi mahsulotlari, moʻyna va zargarlik buyumlari kabi tashilayotgan yoki qabul qilinayotgan tovarlarni saqlab turish uchun muayyan joy zarur edi. Oʻsha paytlarda mustamlaka mamlakatlariga uzoq safarlarga boradigan boy janoblar uchun tashabbuskor ingliz bankirlari mulkni saqlash xizmatlarini taklif qilishdi. Odatda, bu otlar va aravalar qoldiriladigan otxonalar boʻlib, ikkinchi qavatlarda sayohatchilarning mol-mulki va qimmatbaho buyumlari qaytib kelguniga qadar saqlangan.

Angliyaliklardan keyin yevropaliklar sanoat inqilobi ta’sirida omborxonalar yaratishni boshladilar. Biroq sanoat inqilobining imkoniyatlaridan ilhomlangan yevropaliklar orasida bu jarayon kengroq rivojlandi. Shunga qaramay, “Self storage” tizimiga haqiqiy muhim yangiliklar kiritib, uni rivojlantirish imkoniyati faqat amerikaliklarga nasib etdi.

Shaxsiy saqlash tizimi AQShda birinchi koʻchmanchilar davridan boshlab paydo boʻlgan, deb hisoblanadi. Ulardan biri P. Minuyet oʻz hududida mahalliy aholidan turli narsalarni saqlash uchun joy ajratishni boshlagan. Asosan, u savdogarlar tomonidan olib kelingan golland moʻynalari bilan konteynerlarni toʻldirgan.

Qoʻshma Shtatlardagi birinchi ommabop shaxsiy ombor 1891-yilda aka-uka Martin va Jon Bekkins tomonidan Ayova shtatining Su-Siti shahrida tashkil etilgan. 1906-yilda Bekins Van and Storage Co. kompaniyasi oʻz biznesini Kaliforniyada kengaytirgan. Aka-ukalar nafaqat narsalarni saqlash, balki “moving”, ya’ni koʻchirish, tashish va yetkazib berish xizmatlari bilan ham shugʻullanganlar. Qiziqarli jihati shundaki, kompaniya hanuzgacha faoliyatini davom ettirmoqda.

Nihoyat, yigirmanchi asrning 50-yillarida individual vazifalar uchun birinchi omborlar paydo boʻldi.

1958-yil zamonaviy “Self storage” xizmatlarining qayta vujudga kelgan yili hisoblanadi, chunki aynan shu yildan boshlab ushbu xizmat turi dunyoning koʻplab mamlakatlarida ommalasha boshladi. Aynan shu yili Florida shtatining Fort-Loderdeyld shahrida birinchi individual saqlash obyekti – Lauderdale Storage ochildi. Mazkur saqlash turi bugungi kungacha oʻzining asosiy mazmunini saqlab qolmoqda. Oʻshandan beri omborlarga saqlash uchun nafaqat kompaniya mahsulotlari yoki tarqatish uchun moʻljallangan tovarlar, balki alohida iste’mol uchun moʻljallangan turli xil kichik narsalar ham joylashtirilmoqda. Ma’lumki, amerikaliklarning mobilligi yuqori boʻlgani uchun ular oʻzlariga tegishli mol-mulkni biror joyda saqlashga qoldirish zaruriyatiga duch keladilar.

“Self storage” omborlari faoliyati – bu hozirga kelib shiddat bilan rivojlanayotgan sanoat boʻlib, unda iste’molchilar yoki korxonalar ma’lum vaqt davomida shaxsiy yoki korporativ foydalanish uchun saqlash joyi-

ni ijaraga olishlari mumkinligi ham bugungi kunda olimlarimiz tomonidan ta'kidlanmoqda. Mazkur saqlash faoliyatida ashyolar o'lchamiga doir talablar, saqlash uchun baho, obyekt ichida ashyolar joylashuvi, iqlim nazorati, xavfsizlik yoki tashqi kirish va hokazolarga oid ko'plab talablarni hisobga olgan holda, daromadni cheklangan vaqt ichida maksimal darajaga ko'tarish uchun qanday qilib ombor faoliyatini rejalashtirish zarurligi kabi masalalar ham bo'yicha ilmiy yechimlar taklif etilmoqda [2].

**Material va metodlar**

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, AQShda har bir fuqaro uchun ashyolarini saqlashga mo'ljallangan maydon o'rtacha 0,7 kvadrat metrni tashkil etadi. Ushbu faoliyat yo'nalishining yillik o'rtacha aylanmasi taxminan 22 milliard dollarga teng. Maishiy ehtiyojlar uchun mo'ljallangan "Self storage" omborlarining umumiy maydoni butun mamlakat bo'ylab 210 million kvadrat metrdan ortiq. 2010-yilda ushbu bozorning o'sishi o'rtacha 4–5 foiz atrofida bo'lgan. Mazkur omborlardan foydalanish talabining o'ziga xos jihati shundaki, ularning taxminan 4 foizi harbiylar tomonidan foydalanilgan.

Yevropada "Self storage" omborlar faoliyati 80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshlarida rivojlana boshladi. Biroq 10 yil ichida ushbu faoliyat yo'nalishining aylanmasi taxminan 4 mlrd yevroga yetib, butun Yevropa bo'ylab 5000 ta bu kabi omborlar tashkil etildi.

"Self storage" omborlarining faoliyati bugungi kunda Italiya, Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiyada ham keng yo'lga qo'yilgan. Masalan, Angliyada ularning 650 dan ortig'i, Fransiyada 170 ga yaqini, Gollandiyada 100 ga yaqini faoliyat ko'rsatmoqda. Yevropada "Self storage" omborlari bozorining yillik o'rtacha o'sish sur'ati 5–7 foizni tashkil etmoqda.

Ashyolarini yashash joyidan tashqarida yoki boshqa hududlarda saqlash amaliyoti Avstraliyada ham keng tarqalgan. Rossiyada esa bunday faoliyatni birinchilardan bo'lib avtotransport vositalari haydovchilari amaliyotga tatbiq etib, aksariyat hollarda transport vositalarining shinalarini saqlashga ehtiyoj ko'payib borayotganligi sababli so'nggi 5 yil ichida bunday omborlar faoliyatiga talablar ortib borayotganligini kuzatish mumkin [3].

Shu bilan birga, bizning fikrimizcha, hozirgi kunda yakka tartibdagi tadbirkorning tovar omborida omonat saqlash faoliyatini yurituvchi subyekt sifatida huquqiy maqomini belgilovchi maxsus huquqiy hujjat mavjud emas. Biroq amaldagi qonun hujjatlari, xususan, Fuqarolik kodeksining 39-40-moddalarida tovar ombori yuridik shaxs sifatida, shu jumladan, yagona ishtirokchining jamiyati shaklida tashkil etilishi nazarda tutilgan. Bu esa yakka tartibdagi tadbirkorga tovar ombori sifatida faoliyat yuritish imkoniyatini berib, hech qanday to'siq yaratmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 7-yanvardagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatida ularning tovar ombori faoliyatini yuritish bilan bog'liq faoliyat olib borishi ko'rsatilmagan. Shunga ko'ra, yuqoridagi masala yuzasidan Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatiga yangi pozitsiya sifatida yakka tartibdagi tadbirkorlarning tovar ombori faoliyatini yuritishini nazarda tutuvchi qo'shimcha kiritish maqsadga muvofiq.

Biz jismoniy shaxsning tadbirkorlik faoliyati shaklini o'zi uchun tanlash huquqiga ega ekanligidan kelib chiqamiz. Yuridik shaxsni, shu jumladan, bir shaxsning shirkatini tashkil etish orqali jismoniy shaxs o'zi uchun bunday faoliyatni amalga oshirish shakli – yuridik shaxs – huquq subyektini tanlaydi. Ammo u jismoniy shaxs – tadbirkorning shakli ham bo'lishi mumkin, ayniqsa, jismoniy shaxslar – tadbirkorlarning huquqiy holatini tavsiflovchi qonun chiqaruvchi huquqiy texnikaning maxsus usuli – qonun chiqaruvchi iqtisodiyotni qo'llaganligi sabab-

li tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanishga imkon beradi. Agarda qonunchilik hujjatlarida oʻzgacha qoidalar nazarda tutilmagan boʻlsa yoki munosabatlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqmasa, yuridik shaxslarning huquqiy maqomini belgilash boʻyicha faoliyat [4, 222–256-b.] yuqorida qayd etilganlarga asosan, amaldagi qonunchilikka, xususan, Fuqarolik kodeksining 901-moddasiga quyidagicha oʻzgartirish kiritishni taklif qilish mumkin:

“Tovar ombori – bu tovarlarni saqlaydigan va saqlash bilan bogʻliq xizmatlar koʻrsatadigan tadbirkorlik subyekti”.

Shu bilan birga, tovar omborlarini sertifikatlash va ularni sertifikatdan mahrum qilish tartibi belgilanadi hamda bu vakolatli organ tomonidan amalga oshirilishi nazarda tutiladi, biroq shu paytga qadar aynan qaysi organ bunga vakolatli ekanligini aniqlash qiyinchilik tugʻdiradi. Sertifikatlangan tovar omborlari reglamenti mazmuniga qoʻyiladigan talablar ham vakolatli organ tomonidan tasdiqlanadi, biroq bu oʻrinda ham yuqoridagi holat koʻzga tashlanadi. Tovar omborlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari qabul qilingandan buyon amalda boʻlgan qonunchilik normalari tahlili vakolatli organ va uning vakolatlariga oid qonunchilik normalarida nomuvofiqliklar borligini tasdiqlaydi. Bu esa tovar omborlari, jumladan, don omborlarida omonat saqlash jarayoni qiyinlashuviga sabab boʻladi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun tovar omborlarini sertifikatlash va uni oʻtkazish tartibi, shuningdek, tovar omborida omonat saqlash faoliyatini amalga oshirish uchun sertifikat berish hamda uni chaqirib olishga vakolatli organni belgilovchi nizom ishlab chiqish hamda qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Tadqiqot natijalari**

Shu oʻrinda dunyoning qaysi mamlakatlarida tovar omborlari toʻgʻrisida qonunlar borligi va ular oʻsha mamlakatlar hayotiga taʼsiri qanday boʻlayotganligini koʻrib chiqsak.

Masalan, 2004-yil 23-dekabrda Ukrainaning “Sertifikatlangan tovar omborlari, oddiy va ikki qismli ombor guvohnomalari toʻgʻrisida”gi qonuni qabul qilinib, ushbu qonun tovar omborlari faoliyati va ularning tovar birjalaridagi bitimlarda qatnashishlarida mavjud boʻlgan koʻplab qonunchilikdagi kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilgan [5].

AQShda tashuvchilarga nisbatan boʻlgan qoidalar federal qonunlar va xalqaro shartnomalar bilan tartibga solingan boʻlsa, tovar omborlari hamda ularning faoliyatiga doir qoidalar shtatlarning alohida qonunlari bilan tartibga solinadi. Biroq mazkur qoidalar aksariyat shtatlarda Yagona Savdo kodeksining 7-moddasida nazarda tutilgan omborlar va ularning hujjatlarini tartibga soluvchi umumiy normani asos qilib olganligi sababli deyarli butun AQSh boʻylab bu masalada maʼlum darajada birxillikni aks ettiradi [6].

Qator davlatlar oʻz amaliyotida qabul qilgan qonunlari tufayli ombor hujjatlaridan samarali foydalanib kelmoqda. Jumladan, AQShda “Omborlar toʻgʻrisida”gi, Slovakiyada “Ombor guvohnomalari toʻgʻrisida”gi, Ukrainada “Sertifikatlangan tovar omborlari, oddiy va ikki qismli ombor guvohnomalari toʻgʻrisida”gi, Filippinda “Omborlar toʻgʻrisida”gi, Serbiyada “Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari uchun umumiy omborlar toʻgʻrisida”gi, Turkiyada “Ombor guvohnomalari toʻgʻrisida”gi, Qirgʻizistonda “Tovar ombori va ombor guvohnomalari toʻgʻrisida”gi qonunlar qabul qilingan.

Oʻzbekistonda ham “Tovar omborlari toʻgʻrisida”gi Qonunning qabul qilinishi ahamiyati shu bilan bogʻliq boʻladiki, unda “tovar ombori”, “ombor hujjatlari”, “ikki qismli ombor guvohnomasi”, “oddiy ombor guvohnomasi”, “ombor pattasi”, “ombor guvohnomalari reyestri” kabi atamalarning mazmuniga aniqlik kiritiladi; tovar omboriga tovarlarni qabul qilish va saqlashning umumiy tartiblari belgilanadi; ombor hujjatlari turlari, ulardan foydalanish tartibi mustahkamlanadi; ombor guvohnomasini saqlovchining huquqlari va

majburiyatlari belgilanadi; ombor guvohnomasi va omborda saqlash uchun qabul qilingan tovarlarning garovi tartibi belgilanadi; tovar omboridan omborda saqlash uchun qabul qilingan tovarlarni qaytarish tartibiga aniqlik kiritiladi; yoʻqotilgan ombor guvohnomasiga boʻlgan huquqlarni tiklash va ombor guvohnomalarini qayta rasmiylashtirish tartibi belgilanadi; ombor guvohnomalarini bekor qilish va ombor guvohnomalari reyestrini yuritishga doir qoidalarga aniqlik kiritiladi; tovar omborining javobgarligi hamda omborga yetkazilgan zararlarni qoplash normalari belgilanadi.

Hukumatimizning 2022-yil 30-maydagi “2022-yil hosilidan bugʻdoyni xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 284-son qarori 15-bandiga muvofiq, “Omborxona guvohnomasi” moliyaviy hujjatlardan foydalanishni amaliyotga kiritishning huquqiy asoslarini yaratish” boʻyicha topshirigʻi belgilangan. Uning ijrosini ta’minlash borasida Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligi tomonidan 2022-yil sentabrda “Tovar omborida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini saqlash va ombor hujjatlaridan foydalanish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Hukumat qarori loyihasi *(ID-67445)* ishlab chiqilib, reglamentga muvofiq, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilganligini ta’kidlash joiz.

Ma’lumki, bugungi kunda tovar omborlari va ularning faoliyatini tartibga soluvchi umumiy tusga ega boʻlgan qonun hujjati mavjud emas. Fikrimizcha, Oʻzbekiston Respublikasining “Tovar omborlari toʻgʻrisida”gi Qonunini qabul qilish vaqti keldi. Unda tovar ombori tushunchasi, uni tashkil etish tartibi, asoslari, tovar omborini litsenziyalash, faoliyat turini aniqlash qoidalari, tovar ombori shartnomasi va tovar ombori hujjatlari haqidagi normalar oʻz ifodasini topishi kerak.

Ta’kidlash lozimki, fuqarolik huquqi nazariyasi va amaliyotda tovar saqlashga moʻljallangan omborlar turlari haqida alohida fikrlar va koʻrsatmalar uchramaydi. Biroq Fuqarolik kodeksining 902-moddasi umumiy foydalanishdagi ombor toʻgʻrisidagi ba’zi qoidalarni oʻzida belgilaydi. Unga koʻra, agarda qonunchilik hujjatlariga koʻra, tovar ombori mahsulotlarni omonat saqlash uchun chegaralangan doiradagi (faqat aniq) shaxslardan qabul qilishi mumkin boʻlgan omborlar qatoriga kiritilmagan boʻlsa, u umumiy foydalanishdagi ombor hisoblanadi. Bugungi kunda umumiy foydalanishdagi tovar omborlari xususida mamlakatimizda alohida qonun hujjatlari uchramasligini alohida e’tirof etib oʻtish lozim. Shu sababli umumiy tovar omborlari faoliyati omonat saqlash boʻyicha belgilangan umumiy qoidalar va Fuqarolik kodeksidagi tovar omboriga bagʻishlangan normalar asosida amalga oshirilmoqda.

Fuqarolik kodeksida umumiy tovar omborlari alohida ajratib koʻrsatilganligidan kelib chiqib, amaliyotda maxsus tovar omborlari ham mavjud ekanligini e’tirof etish zarur.

**Tadqiqot natijalari tahlili**

Qonunga koʻra (shu jumladan, Ukraina Fuqarolik kodeksining 936-moddasida), tovarlarni professional asosda saqlaydigan omonat saqlovchi professional omonat saqlovchi maqomini oladi. Shu tarzda zamonaviy sharoitda tovar omboriga professional omonat saqlovchi maqomini berish maqsadga muvofiq emas, deb hisoblovchi olimlarning yondashuvi [7, 15-b.] muvaffaqiyatsiz boʻlib chiqadi.

M.V. Zimeleva omborlarni oʻziga xos tijorat korxonasi deb hisoblagan, chunki sovet qonunlari ularni soliqqa tortishda tijorat korxonalari sifatida tasniflagan [8, 85-b.]; V.P. Nagrebelniy omborni xomashyo, tayyor mahsulotlar, mashina va asbob-uskunalar, logistika, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari hamda boshqa mol-mulkni doimiy yoki vaqtincha joylashtirish va saqlash joyi [9, 502-b.] sifatida ta’riflagan; V.I. Savin omborni “ixtisoslashtirilgan bino, tovarlarni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va belgilangan maqsadlari boʻyicha berish uchun inshoot” deb ta’riflaydi [10, 541-b.]; Y.V. Krivenko – tovarlarni

omonat saqlash boʻyicha xizmatlar koʻrsatish orqali tadbirkorlik faoliyati uchun moʻljallangan mulkiy majmua sifatida, ya’ni sotish, ijaraga berish yoki garovga qoʻyish obyekti boʻlishi mumkin boʻlgan koʻchmas mulk sifatida tavsiflaydi [11, 393-b.]. Albatta, bu olimlarning fikriga qoʻshilish mumkin, agar omborni fuqarolik muomalasi obyekti sifatida koʻrib chiqsak, ushbu yondashuvlar oʻzini oqlaydi. Biroq ushbu yondashuv omborni omonat saqlash shartnomasining tarafi boʻlgan xoʻjalik yurituvchi subyekt sifatida tovar omborining mohiyatini ochib bermaydi.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy sharoitda boshqa olimlarning yondashuvi koʻproq mos keladi. Xususan, omborni tijorat tashkiloti (yuridik shaxs) deb hisoblaydigan A.S. Kolomaskayaning fikricha, ombor professional omonat saqlovchi sifatida faoliyat yuritadi va ombor hujjatlaridan foydalanadi. Omonat saqlash Ustavda tadbirkorlik faoliyatining asosiy turi sifatida koʻrsatilgan boʻlishi mumkin yoki koʻrsatilmagan boʻlsa-da, tegishli operatsiyalarning tizimliligi va maxsus jihozlangan binolar (hududlar) mavjudligi bilan tasdiqlanadi [12, 7–8-b.]. Ushbu yondashuvni A.S. Dudko ham qoʻllab-quvvatlaydi. U tovar ombori deganda, har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilgan, umumiy yoki maxsus huquq layoqati doirasida tovar aylanmasi sohasida omonat saqlash orqali yordamchi iqtisodiy tijoriy faoliyatni amalga oshiradigan tijorat xoʻjalik tashkilotlarini tushunadi [13, 67–70-b.].

Bundan tashqari, boshqa nuqtayi nazarlar ham mavjud. Masalan, Y.S. Solovyova nafaqat tashkilotni, balki mahsulotlarni saqlash bilan bogʻliq xizmatni koʻrsatadigan yakka tartibdagi tadbirkorni ham tan olishi mumkin, deb hisoblaydi. Shunday qilib, u yuridik shaxs bilan bir qatorda, tovar ombori sifatida yakka tartibdagi tadbirkorning mavjudligini ham istisno qilmaydi [14, 7–8-b.].

Adabiyotlarni oʻrganish shuni koʻrsatadiki, omborlarda saqlash faoliyati hozirgi kunda an’anaviy ombor saqlashdan koʻra, samaradorlik va natijadorlikni oshiruvchi avtomatlashtirilgan hamda integratsiyalashgan saqlash tizimlariga oʻtish yoʻlida tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda [15].

Bundan tashqari, tovar omborlari tushunchasi va turlarini oʻrganish bilan birga, ularning mohiyatini aniqlashtirish maqsadida bevosita omborlarning koʻrsatayotgan faoliyati shakliga murojaat qilgan holda, ayrim ilmiy xulosalar shakllanib borayotganligini ham ta’kidlash lozim.

Masalan, ashyolarni omborda saqlashni tadqiq etish bugungi kunda nafaqat an’anaviy usullarga, ya’ni siyrak va qulay joylashtirilgan buyurtmalarni yigʻishda samaradorlikni oshirish yoki AS/R tizimlari kabi klassik avtomatlashtirish vositalariga qaratilgan, balki juda yuqori zichlikdagi saqlash tizimlari, AVS/R kabi yangi avtomatlashtirilgan texnologiyalar hamda ombor unumdorligini oshirishga yordam beradigan boshqa omillar, masalan, inson omiliga ham katta e’tibor qaratilmoqda [16].

Shu bilan birga, bozordagi raqobat ishlab chiqarish va tarqatish tarmoqlarini loyihalash hamda ekspluatatsiya qilishni doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi. Bu esa, oʻz navbatida, omborlarning unumdorligini oshirish zaruratini keltirib chiqaradi. Just-In-Time (JIT) kabi yangi boshqaruv falsafalarini qabul qilish yoki faoliyatda tejamkorlikni ta’minlash omborda ashyolarni saqlash bilan bogʻliq qoʻshimcha vazifalarni yuzaga keltiradi. Bular inventarizatsiya jarayonini qattiq nazorat qilish, tezkor ishlash yoki bir vaqtning oʻzida koʻproq mahsulot turini saqlash imkoniyatini yaratishni talab qiladi.

Boshqa tomondan, omborlar faoliyatiga yangi axborot texnologiyalarining (IT) keng tatbiq etilishi, masalan, radiochastota orqali shtrixli kodlash (RF) va ombor boshqarish tizimlari (WMS) – ularning faoliyatini yanada yaxshilash uchun qoʻshimcha imkoniyatlar yaratadi. Ushbu imkoniyatlar real vaqt rejimida ombor faoliyatini monitoring qilish, ta’minot zanjirining boshqa qismlari bilan oson oʻzaro aloqani ta’minlash hamda yuqori

darajadagi avtomatlashtirishni amalga oshirish imkonini beradi [17].

**Xulosalar**

Ta'kidlash lozimki, Fuqarolik kodeksi qabul qilinganidan beri chorak asrdan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa-da, amaliyotda tovar omborlaridan foydalanish va ombor hujjatlarining qimmatbaho qog'oz sifatida qo'llanishi masalalariga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Bu holat, birinchi navbatda, tovar omborlari faoliyatining keng yo'lga qo'yilmaganligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, tovar omborida omonat saqlash munosabatlarining qonunchilik tomonidan tartibga solinishida mavjud bo'lgan bo'shliqlar bilan izohlanadi. Fuqarolik kodeksida tovar omborida omonat saqlash munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan umumiy normalar mavjud bo'lsa-da, ular ombor faoliyatining o'ziga xos jihatlari va amaliy qo'llash mexanizmini to'liq qamrab olmaydi. Shuningdek, hozirgi kunda ombor guvohnomalarining ikki qismli ekanligi hisobga olinib, ularning muomalasini tartibga soluvchi maxsus qonun hujjati mavjud emas.

Shu bilan birga, ikki qismli ombor guvohnomasining muomalasi bilan bog'liq qator muammolar mavjudki, ularni bartaraf etish uchun, birinchi navbatda, qonun hujjatlarini takomillashtirish hamda qimmatbaho qog'ozlarning ushbu turi amal qilishining huquqiy va amaliy mexanizmlarini yaratish lozim.

Bundan tashqari, hozirgi kunda mamlakatimizda omonat saqlash faoliyati ko'plab sohalarda qo'llanmoqda. Masalan, buyum bozorlaridagi omborlar, bojxona postlaridagi omborlar hamda u yoki bu turdagi tovarlarni saqlashga xizmat qiladigan maxsus omborlar. Biroq ushbu omborlarning barcha uchun xos bo'lgan umumiy qoidalar, ularning tovar ombori sifatida e'tirof etilishi va fuqarolik muomalasida tovar ombori sifatida shartnomalar tuzishi, saqlash xizmati ko'rsatish talablariga javob berishi mezonlarini ham ishlab chiqishga bugunda zarurat mavjud.

Shu sababli tovar omborlarini tashkil etish hamda ularning faoliyatini boshlash uchun zarur shartlarni aniqlash turli xil hujjatlar asosida amalga oshirilmoqda. Fikrimizcha, mazkur kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Tovar omborlari to'g'risida"gi Qonunini qabul qilish zarur. Ushbu qonunda tovar ombori tushunchasi, ularni tashkil etish tartibi va asoslari, tovar omborini litsenziyalash, faoliyat turini aniqlash qoidalari, shuningdek, tovar ombori shartnomasi va tovar ombori hujjatlari haqidagi normalar o'z ifodasini topishi kerak.

Shu bilan birga, tovar omborlarini sertifikatlash va uni o'tkazish tartibi, shuningdek, tovar omborida omonat saqlash faoliyatini amalga oshirish uchun sertifikat berish hamda uni chaqirib olishga vakolatli organni belgilovchi nizom ham ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

## REFERENCES

1. The history of self storage industry in the world and Ukraine. Available at: https://www.skladovka.ua/uk/istoriya-razvitiya-self-storage-v-mire-i-ukraine/

2. Shuyu Zh., Yeming G., René de K. Designing self-storage warehouses with customer choice. *International Journal of Production Research*, 2016, vol. 54, no. 10. DOI: 10.1080/00207543.2016.1158880.

3. Chto takoye individual'noye khraneniye veshchey, ili Self storage [What is individual storage of things or Self storage]. Available at: https://www.cheapsklad.ru/informatciya-cheapsklad/48-self-storage/

4. Borisova V.I. Ucheniye o sub"yektakh grazhdanskogo prava [The doctrine of subjects of civil law]. Kharkov, Right Publ., 2013, pp. 222–256.

5. Sertifitsirovannyy tovarnyy sklad [Certified warehouse]. *Legal Practice*, vol. 5(371). Available at: https://pravo.ua/articles/sertificirovannyj-tovarnyj-sklad/

6. Brent W.P. Five Points of Warehouse Law that Every Parcel Shipper Needs to Know. 2016. Available at: https://parcelindustry.com/article-4556-Five-Points-of-Warehouse-Law-that-Every-Parcel-Shipper-Needs-to-Know.html

7. Kravchenko I.V. Dogovor khraneniya na tovarnom sklade: problemy regulirovaniya, kvalifikatsii i primeneniya [Warehouse storage agreement: issues of regulation, qualification and application]. Moscow, 2004, p. 15.

8. Zimeleva M.V. Poklazha v tovarnykh skladakh [Luggage in warehouses]. Moscow, Finizdat Publ., 2017, p. 85.

9. Shemshuchenko Yu.S. Yuridicheskaya entsiklopediya [Legal Encyclopedia]. Kyiv, 2018, vol. 5, p. 502.

10. Savin V.I. Sklady [Warehouses]. Moscow, *Business and Service*, 2001, vol. 8, no. 8, p. 541.

11. Krivenko Yu.V. Otdel'nyye vidy khraneniya. Grazhdanskoye pravo Ukrainy [Certain types of storage. Civil law of Ukraine]. Kharkov, Odyssey Publ., 2008, p. 393.

12. Kolomatskaya A.S. Dogovor skladskogo khraneniya [Warehouse storage agreement]. Moscow, 2004, pp. 7–8.

13. Dudko O.S. K voprosu opredeleniya ponyatiya tovarnykh skladov kak khraniteley tovarov [On the issue of defining the concept of warehouses as storage facilities for goods]. *Law and Society*, 2014, vol. 1-2, pp. 67–70.

14. Solov'yeva Yu.S. Dogovor skladskogo khraneniya po grazhdanskomu zakonodatel'stvu Rossiyskoy Federatsii: na primere dogovora khraneniya zerna i produktov yego pererabotki [Warehouse storage agreement under the civil legislation of the Russian Federation: using the example of a storage agreement for grain and its processed products]. Moscow, 2004, pp. 7–8.

15. Shashank K., Balkrishna E.N., Karuna J. Revisiting the warehouse research through an evolutionary lens: a review from 1990 to 2019. *International Journal of Production Research,* 2021, vol. 59, no. 11. DOI: 10.1080/00207543.2020.1867923.

16. René B.M. De Koster, Andrew L.J., Debjit R. Warehouse design and management. *International Journal of Production Research*, 2017, vol. 55, iss. 21. DOI: 10.1080/00207543.2017.1371856#d1e177.

17. Jinxiang G., Goetschalckx M., Leon F. McGinnis. Research on warehouse operation: A comprehensive review. *European Journal of Operational Research*, 2007, vol. 177, no. 1, pp. 1–10.

# YURISPRUDENSIYA

## HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 3-SON

VOLUME 5 / ISSUE 3 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.3.